
“Markaziy Osiyo yoshlar forumi” doirasida Tojikistonlik yoshlar Rishtonga tashrif buyurishdi

Tojikistondan tashrif buyurgan yoshlarni Rishton tumanida tantanali kutib olish marosimi o'tkazildi. Mehmonlar dastlab, ustadbirkor Ravshan Tojiddinov rahbarlik qilayotgan “R+Koron” korxonasi qarasli kulolchilik muzeyida bo'ldilar. Tojikistondan tashrif buyurgan delegatsiya a'zolariga kulolchilik mahsulotlarining yaratilish tarixi, bosqichlari yaqindan tanishtirildi. “Tojikiston-O'zbekiston” yoshlar forumi ishtirokchilari shuningdek, Navoiy mahallasida joylashgan Kulolchilik mahsulotlari sanoat zonasida ham bo'ldilar. Bu yerda mehmonlar tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan “MM Porcelain” MChJ shaklida oilaviy korxonasi qoshidagi chinni mahsulotlariga bezak berish sexi va Shokirjon Ahmadjonov rahbarlik qilayotgan “Mingboshi Keramik” oilaviy korxonasi tashkil etilgan kulolchilik kooperatsiyasiga ham tashrif buyurishdi. Tojikistondan tashrif buyurgan yoshlar birdek zamonaviy kasblarga qiziqishlari borligini aytib, Farg'ona viloyatida yoshlar uchun katta imkoniyatlar va sharoitlar yaratilganligini ta'kidlashdi.

2022-05-23 16:19:23